



USA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

**INNOVATION
IN THE MODERN
EDUCATION
SYSTEM**



**25 APRIL
2024 YEAR**

USA, WASHINGTON

Info.interconf@mail.ru

www.interonconf.org



INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

Part 40

APRIL 2024

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

Washington, USA
25th April 2024

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference (25th April , 2024) – Washington, USA: "CESS", 2024. Part 40 – 809 p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Nikadambayeva Hilola Batirovna, Candidate of Pedagogical Sciences,
docent

Pirimov Akram Pirimovich, docent

Shodiyev Furqat Davranovich, Candidate of Technical Sciences, docent

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română,
кыргыз тили, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM**". Which took place in Washington on April 25, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

O'QITISHDA TA'LIMYIY METODLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Sh.U. Kamolova

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrası
katta o'qituvchisi*

Naxalboyeva Nigora Turdi qizi

pedagogika va psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib, o'quvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirishning didaktik asoslariga bag'ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tafakkur, ta'lim-tarbiya, maktab, tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik.*

Umumiy pedagogika fanida ta'lim metodlarini va usullarini tasnif etish masalalari ham alohida muammo sifatida o'rganilgan. Turli yillarda faoliyat ko'rsatgan turli tadqiqotchilar tomonidan ta'lim metodlari turlicha tasnif etilgan. Ya'ni, pedagogikada o'qitish metodlarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar o'qitish metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olgan bo'lsa, ayrimlari esa o'qituvchi faoliyatini, uchinchi guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olgan. O'qitish usullariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy, chunki o'qitish metodlari mazmunan boy hodisa sanaladi.

Ta'lim metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash sodda jarayon bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. O'qitish metodlarini tasnif qilishda mashhur didakt olim Yu.K.Babanskiy qator ilmiy pedagogik asarlarida o'quvchi faoliyatini asos qilib olgan. Shunga ko'ra, u o'qitish usullarini o'quv biluv faoliyatini joriy etish va boshqarish usullari, o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish usullari, o'quv-bilish faoliyatini nazorat etib borish usullari kabi uch guruhga taqsimlaydi. Har bir guruh o'z ichida kichikroq guruhlarga ajraladi. Masalan birinchi guruh usullari jumlasiga quyidagilar kiradi: Og'zaki bayon usullari; ko'rgazmali usullar; amaliy usullar; induktiv va deduktiv usullar; reproduktiv usullar; muammoli izlanish usullari; mustaqil ishlash usullari.

Yuqoridagi rag'batlantirish va nazorat qilish usullari ham o'z navbatida guruhlarga ajratilgan. Hozirgi paytda o'qitish usullariga oid eng mukammal tizimlardan biri Yu.K.Babanskiy tasnifidir.

Yu.K.Babanskiy tasnifiga ko'ra didaktik jarayoniga nisbatan qaraydigan bo'lsak, kibernetik yondashuv maqsadga to'g'ri bo'ladi, shundan kelib chiqqan holda, har qaysi murakkab faoliyat, shu o'rinda, pedagogik faoliyatni uchta eng muhim tarkibiy qismga ajratadi:

- 1) tashkiliy;
- 2) nazorat;
- 3) rag'batlantiruvchi.

Ana shu asosida ta'lim metodlarini o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari, o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari kabi guruhlarga ajratib olamiz.

Didaktik jarayon nazariyasi asosida ko'rilgan ta'lim metodlarining tasnifi kichik guruhlar tarkibi, soni va unga kiritilgan metodlar nomlanishi hamda funksiyalari bilan kibernetik yondashuvli tizimdan tubdan farqlanadi va o'quv-tarbiya jarayonining metodik jihatdan birmuncha yuqori darajasini ta'minlaydi.

Ibn Sino muntazamlilik va uzviylik prinsipiga amal qilish kerakligini taytib o'tgan. O'quvchilar kuzatish va tajribalarini muntazam va uzviy jarayonga aylantirish orqali esa ularda mantiqiy mushohada va mustaqil fikr yuritish qobiliyati o'sib boradi. Mazkur sohada Sharq mutaffakkirlari ham o'zining munosib hissasini qo'shgan. Ta'lim metodlarini tasnif etish, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda ilmiy asoslarini o'rganishda ko'mak berib, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi hamda shunga ko'ra ijod uchun asosiy rol bo'lib xizmat qilib keladi. Ta'lim usullari, metodlarini tasnif etish ta'lim beruvchilar ishlarining orasida ham guruhlanadi. Tasniflashning birinchi guruhiga o'qitish metodlari va keyingi guruhiga esa o'qish metodlariga bo'linadi.

O'qitish metodlarini taniqli olimlarimiz ham tasniflashgan va tavsiya etganlar. Buyuk olimlarimizdan Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Burxoniddin Zarkujij, Abu Ali Ibn Sinolarning metodlarni tasnif etishida eng muhimi mantiqiy bilishlik faoliyatini rivojlantirish, kuchaytirishni ko'zda tutgan bo'lib, bu metodlar bilim, ko'nikma va malakalarni o'stirish, shakllantirish hamda mustahkamlagan holda, ko'rsatmalilik — tajribaviylik, amaliyot, nazariya bilan amaliyot bilan birgalikda ishlash, izlash metodlari kabilardir.

Ibn Sinoning aytishicha, o'quv va jismoniy mashqlarni bolalarning yosh xususiyatlari hamda imkoniyatlarini hisobga olish orqali suhbatlar, tushuntirishlar bilan birga hamkorlikda o'tkazib borish kerak. Individual holatda ta'lim bergandan ko'ra, guruhlarda, sinfda, jamoa holatda ta'lim

berishning samarasi ko'proq bo'ladi, negaki jamoalarda o'quvchilar orasida to'g'ridan to'g'ri bahs tug'ila boshlaydi, deydi: «Bolalarni guruh qilib o'qitish tashkil qilinsa, juda yaxshi samara beradi. Chunki bu jarayonda ular bir-birlaridan ibrat hamda o'rnak oladilar. Jamoa qilib o'qitish yurtimizga katta foyda keltirishi mumkin. Chunki bunda o'quvchilar bir-birlari bilan do'stlashadilar, ular o'rtasida o'zaro hurmat paydo bo'ladi, o'zaro fikrlashib bahslashadilar, huquq va burchlari xususida muhokama yuritadilar, musobaqalashib ham turadi. Har narsaning bir yomon tarafi bo'lganidek, ular orasida kelishmovchiliklar, ziddiyatlar ham o'z-o'zidan kelib chiqishi mumkin. Agarda murabbiy guruhni birlashtira olsa, bu ko'ngilsizlik holati uchramasligi ham mumkin. O'quvchilar orasida ham guruh-guruh bo'lish holatlari uchrab turadi.

Hozir dars jarayonlarida qo'llanilayotgan ta'lim metodlari xilma- xil hamda ko'p sonlidir, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari, ta'limiy hamda tarbiyaviy imkoniyatlari mavjuddir. Bundan ko'rinib turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar uchun mos hisoblanadi. Shu boisdan ta'lim metodlari va usullarining har-birini o'z o'rnida qo'llash ko'zda tutilgan samaraga erishish katta ahamiyatlidir. Lekin bu masala olimlarimiz tomonidan hozirgacha to'liq o'rganilmagan.

Ta'lim metodlari quydagi umumiy belgilarga ajratish mumkin: so'zlash hamda tinglash, tushuntirish-fikrlash, ko'rsatish-kuzatish, mustahkamlash-takrorlash kabi jarayonlardir, bu umumiy belgilar har qaysi metodlarga tegishlidir.

Ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida o'zlashtirilayotgan bilimlar mohiyati analiz va sintez metodlari yordamida aniqlanadi.

Analiz (lot. "analysis"–bo'laklarga ajratish)-narsa va voqea hodisalarni tarkibiy qismlarga, bo'laklarga bo'lishdir. Masalan, anor qattiq po'sti, qat-qat parda va donachalarga ajratiladi.

Induktiv va deduktiv tafakkur o'quv materialini tushunib olishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Deduktiv xulosa (lot. "deductio" - ikkiga ajratish, keltirib chiqarish) - umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarab borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat metod sanaladi. Tafakkur va deduktiv xulosa metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda tushunchalar hosil bo'ladi.

“Zinama-zina” metodini maktab, oliy ta'lim, maktabgacha ta'limda qolaversa, boshqa o'quv jarayonlarida ham bimalol qo'llasa bo'ladi. Bu metodning ko'rinishi zinaga o'xshagani uchun hamda savollarning ketma ket kelishi zina shaklida bo'lgani uchun zinama-zina metodi yoki texnologiyasi deb ataladi. Bu metod o'quvchilarda yig'ilgan bilimlarni

hamda fikrlarni birlashtirish xususiyatiga egadir. Zinama-zina metodining yana bir avzalligi shundan iboratki, bu metod orqali o'quvchilarni chizmachilik, rasm chizish, yozuvlarning chiroyli yozilishiga hamda ko'rinishini bir xil yozishiga yaqindan yordam berishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, ta'limiy metodlarni qo'llash orqali o'qitishning va bilimlarni o'zlashtirishning nutq, so'z, tovush bilan bog'langan usullari keyingi o'ringa o'tib, o'qitishning tasavvurlar, shakllar, ranglar, tasvirlar bilan bog'liq usullari birinchi o'ringa o'tib boshlaydi.

Ta'lim metodlari darslarning qulayligini ta'minlaydi. Unda o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirishi doimiy ketma-ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak hollarda tuzatishlar kiritishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Педагогика «Под ред. Ю.К.Бабанского. – Москва, Просвещение, 1989.
2. http://sociosphere.com/files/conference/2014/k-02_20_14.pdf
3. Mavlonova R. va boshq., Pedagogika, T: O'qituvchi 2001y., 470 b.
4. <https://abiturtest.uz/mavzular/sharq-uygonish-davrida-pedagogik-fikrlarning-rivojlanishi/>
5. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti —sharq tillarini o'qitish metodikasi va pedagogika kafedrası pedagogika fanidan ma'ruza matni Toshkent 2018, 17-bet.

Z.D.Xolmurodova, Hamidova Gullola Xudoyqul qizi «DUNYO-M» AJ DA BUG'DOY DONINI NAVLI UN TORTISHGA TAYYORLASH VA UN ISHLAB ILMIY TOMONLAMA TADQIQ QILISH	753
Tajibayeva Gulchexra Sadriddinovna KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI BOSHQARISH USULLARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	758
Rakhimkulikhon Adizov IDENTIFICATION OF LIPID RAFTS IN WHEAT CHLOROPLAST MEMBRANES	763
Moxichexra Xayritdinova TURLI QURG'OQCHILIKKA CHIDAMLI KUZGI ARPA NAVLARINING FOTOSINTETIK APPARATINI TUPROQ QURG'OQCHILIGIGA MOSLASHTIRISH	767
Haydarova Aziza METSULFURON-METILNING KENG KONSENTRATSIYADAGI BAHOR ARPA KO'CHATLARI O'SISHIGA TA'SIRI	773
Mokhichekhra Khayritdinova INFLUENCE OF PHOSPHORUS-CONTAINING FERTILIZERS ON BARLEY IN EARLY STAGES OF ONTOGENESIS	776
Saydaliyeva Dilzodaxon Baxodirovna VIEWS OF UZBEK LINGUISTS ON FIELD THEORY	781
Raxmatullayeva Zuhra Raxmatullayeva Azimova Saodat Sherboyevna, Otamurodova Nigora Nabiyevena BO'LAJAK PEDAGOGAR FAOLIYATIDA TA'LIM JARAYONIGA YANGICHA YONDOSHUV SHAKLI	785
Муратова Нозанин Музафаровна, Умаржонова Дилноза ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.ЧЕХОВА И А. КАХХАРА	791
Sh.Erkinov, R Normakhmatov, A. Gafurov MAKING JAM FROM WHITE MULBERRY BERRIES	796
Sh.U. Kamolova, Naxalboyeva Nigora Turdi qizi O'QITISHDA TA'LIMIY METODLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	801
Kamolova Shirinoy Usarovna, Jasurova Nazira Xasan qizi BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TA'LIMIY O'ZLASHTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI	805